



MOVAROUNNAHR YETUK MUFASSIRI ABUL BARAKOT NASAFIY

Jo'raboyeva Maftuna

Toshkent islom instituti 403-guruh talabasi

Qadimgi Islom manbalarida hozirgi O'rta Osiyo "Movarounnahr" va "Xuroson" nomlari bilan zikr qilingan. Tarixiy Islom kitoblarida Buxoro, Samarqand, Nasaf, Termiz, Koson, Shosh, Farg'ona, Marv, Gurganch, O'zgan va boshqa shaharlarning nomlari ham zikr qilingan. Mazkur shaharlarning barchasi diyorimizdadir, ulardan ko'plari hozirgi vaqtgacha o'z qadimiy nomlari bilan ataladi.

Butun Islom olamiga ma'lum va mashhurki, bu o'lka barcha ilmlarda, jumladan Islom ilmlarida ham jahonga dong taratgan buyuk allomalarni yetishtirgan. Mazkur ilmlar ichida hadis, tavhid, nahv, fiqh va boshqa ko'pgina ilmlar bor. Biz esa hozir faqat Movarounnahrda tafsir va mufassirlar haqida alal xusus Imom Abul Barakat Nasafiy rahimahulloh haqida so'z yuritmoqchimiz.

U kishining to'liq ismlari Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Abul Barakat Hofiziddin an Nasafiydir. U kishi zamonasining yetuk olimlaridan bo'lib, fiqh, usulul fiqh, tafsir, hadis va kalom ilmining bilimdoni bo'lgan. Aslida u kishi Samarqandning qishloqlaridan biri bo'lgan Izijda tug'ilib hijriy 710 yilda vafot etgan. An Nasafiy deb atalishi esa Samarqand va Jayhun orasida joylashgan Movarounnahrning shaharlaridan biri bo'lgan Nasaf shahriga nisbat berib aytilgan. Abul Barakat Nasafiy rahimahulloh yoshligidan tafsir ilmiga qiziqib o'sdi. Tafsir ilmiga kerakli bo'ladigan fanlarni puxta o'zlashtirishga harakat qildi. U kishi ilm talabida Bag'dod va boshqa shaharlarga safar qilgan va so'ngra o'z vataniga qaytgan. Fiqh va usulul fiqhda imom edi. Hadis va uning manolarining bilimdoni bo'lib, o'ta taqvoli va zohid zotlardan edi.

Imom Nasafiyning bir qancha tasnifotlari bo'lib ulardan eng mashhurlari va muhimlari quyidagilar:

1. "Kanzud daqiq". Bu kitob hanafiy fiqhida eng e'tiborli matnlardan hisoblanadi.
2. "Al Vofiy"
3. "Al Kofiy Sharhul Vofiy"
4. "Al Musoffa"
5. "Umdatul Aqoid" (tavhidida)
6. "Al Manor" (usulul fiqhda)
7. "Kashful Asror fiy Sharhil Manor"
8. "Al Mustasfo" Sharhul Fiqhin Naafi'
9. "Al E'timad" Sharhul Umda
10. "Madorikut Tanzil va Haqiqut Ta'vil"

Musulmonlar kelib fath qilganlaridan so'ng, Alloh subhanahu va taolo bu diyornlarni ham Islom nuri bilan munavvar qildi. Yerlik aholi Islomni qabul qilganlaridan so'ng, avvalgi musulmonlar yangi musulmonlarga Islom ilmlarini o'rgata boshladilar. Bu ilmlar ichida tafsir ilmi ham bor edi. Ma'lumki, bu diyornlarning tub



aholisi Islomdan avval ham ba'zi bir ilm va madaniyat turlaridan xabardor edilar. Ushbu sababga ko'ra, Alloma Ibn Xaldun ta'kidlaganidek, ularda Islom ilmlarini qabul qilish va rivojlantirishga loyiq malaka bor edi.¹²

Bir oz vaqt o'tishi bilan Muhaddislar madrasasi paydo bo'ldi va ular Qur'on tafsiri to'g'risidagi asarlarni jamlagan birinchi kishilar deb e'tirof qilindilar. Ularning dardori Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy edilar. "Kashf uz-Zunnun" nomli kitobda zikr qilinishiga ko'ra, u zot "Tafsiri Kabir" nomli alohida bir tafsir kitob ta'lif qilganlar, lekin afsuski, mazkur kitob bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramasdan, Imom Buxoriy tafsir ilmida ulkan asar qoldirib ketganlar, u zotning "Jome' us-Sahih" kitoblarida Qur'oni Karim tafsiriga oid yuzlab hadis mavjud.

Ikkinchi hijriy asrda tafsir ilmi hadisdan ajrab, alohida ilm bo'lgandan so'ng, Movarounnahrda ulkan mufasssirlar yetishib chiqdilar va shuhratlari butun jahonga taraldi. Ulardan ba'zilarini zikr qilib o'tishga ijozat bergaysiz:

1. Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy.

Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tavallud topganlar va hijriy 333-yilda vafot topganlar. U zotning aksariyat muallafotlari tavhid ilmida, ya'ni ilmi kalomda bo'lgan. Imom Moturidiy o'zlarining "Ta'viylotu ahlissa sunna" nomli tafsirlarida ilmi kalom ulamolari yo'lidan borganlar va Qur'oni Karim oyatlarini aqiydada Ahli Sunna val Jamoa mazhabini qo'llab tafsir qilganlar.

2. Imom Abu Lays Nasr ibn Muahmmad ibn Ahmad ibn Ibrohim Samarqandiy.

U zot Imom Hodiyy nomi bilan mashhur bo'lganlar, 373-hijriy sanada vafot etganlar. Imom Abu Lays Samarqandiy ko'plab kitoblar ta'lif qilganlar. Tafsir kitoblarini esa "Bahrul ulum" deb nomlaganlar va bu tafsir "Tafsir bil ma'sur" toifasidandir.

3. Imom Jorulloh Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Umar Zamaxshariy.

Bu ulug' imom Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida¹³ 467-hirjiy sanada tavallud topganlar va 538-hijriy sanada vafot etganlar. U zot tug'ilgan yurtlarida dafn qilinganlar. Imom Zamaxshariy turli ilmlarga doir ko'plab kitoblar tasnif qilganlari va eng mashhur muallafotlaridan biri "Kashshof an haqiqi va uyunil aqovili fiy vujuhit-ta'viyl" nomli tafsir kitobi bo'lib, u ko'pchilikka "Kashshof" nomi bilan mashhurdir.

Imom Nasafiyning "Madorik at-tanzil va haqiq at-ta'vil" asari tafsir ilmida o'z mavqeiga ega bo'lgan asarlarning eng saralaridan biridir. Imom Nasafiy rahmatullohi alayhining bu tafsiri "Tafsirul Bayzoviy" va Zamaxshariyning "Kashshof" asarlaridan muxtasar qilib olingan.¹⁴ Ushbu kitobni "Kashf uz-zunun" sahibining aytishicha, Shayx Zayniddin muxtasar qilgan degan. U Kashshofdagi mo'tazila e'tiqodidagi fikrlarni jamlab, Ahli sunna val Jamoa mazhabiga ko'ra ta'lif qilgan. Bu tafsir uzun tafsirlar bilan

¹² Abdurahmon Muhammad ibn Xaldun. Muqaddimatu Ibn Xaldun. Ad-daru Yarub. Tunis: 2004, 216 b.

¹³ "Zamaxshar qishlog'i" hozirgi Turkmanistonning jumhuriyati Toshhovuz shahridan 30 chaqirim uzoqlikda joylashgan.

¹⁴ Rahmatulloh obidov. "Qur'on va tafsir ilmlari" Movarounnahr. Toshkent: 2005. – B. 231.



qisqa tafsirlar o'rtasidagi o'rtacha tafsirdir. Bu tafsirda Imom Nasafiy rahimahulloh qiroat va tarkib orasidagi qoidalarni jamlagan. Bunga Kashshofda kelgan balog'at qoidalari va yashirin nozik ma'nolarni kashf etishdan iborat bo'lgan bir qancha narsalarni ham kiritgan. Shu bilan birga, Zamaxshariy o'z tafsirida qo'llagan savol va javoblarni ham keltirgan. Lekin Imom Nasafiy rahimahulloh o'zining bu tafsirida oyatlarni asos qilib olgan. Shuning uchun "Kashshof"ning sohibi suralarning fazilati borasida mavzu' hadislarni keltirganidek u kishi mavzu' hadislarni keltirmagan. Imom Nasafiy rahimahulloh grammatik qoidalarga chuqur kirmay, balki yengil to'xtalib o'tgan. Lekin ma'lumki Imom Zamaxshariy "Kashshof"da grammatik qoidalarga asosiy e'tiborni bergan. Imom Nasafiy rahimahulloh mutavotir yetti qiroatni lozim tutib, har bir qiroatni o'z qorisiga nisbatini bergan. Hukmiy oyatlarning tafsirida mazhablarning qarashlariga ham to'xtalib o'tgan. Har bir mazhab keltirgan dalillarni, fikrlarni qisqacha bayon qilib, asosan Hanafiy mazhabini qo'llab quvvatlagan. Mazhabiga muxolif kelganlarga raddiyalar bergan. Bu tafsirda Isroiliyot rivoyatlarining zikri kamdan-kam uchraydi. Shunda ham bunday rivoyatlarni keltirib turib, so'ngra rad qiladi.

Darhaqiqat, imom Nasafiy rahmatullohi alayh o'z tafsirining avvalida qisqa bir iborani keltirib, unda o'zining bu tafsirining yozishdagi yo'nalishi va uslubini bayon qilib jumladan, shunday deydi: "Tafsir ilmida qiroat va Tarkib vajhlarini jamlagan "Badi" va "Ishorat" ilmining nozik jihatlarini o'z ichiga olgan, ahli sunna val jamoaning so'zlari bilan bezalgan, bid'at va zalolat ahlining botil fikrlaridan holi bo'lgan, malol keladigan darajada uzun bo'lmagan va xalal beradigan darajada qisqa bo'lmagan o'rtacha bir kitobni yozdim".¹⁵

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umayma Badruddinning "an-Nasafiy va manhajuhu fit-tafsir" nomli magistrlik risolasi, 1990-yil.
2. Fazliddin Suvonov. "Nasafiy Tafsiri haqida" maqola.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'on ilmlari. Hilol nashr Toshkent. 2013
4. Ziyouz.com
5. Oliyadahad.uz
6. Muslim.uz
7. Islom.uz
8. Ravza.uz
9. Islaminstitut.uz

¹⁵ Abul Barakot Nasafiy "Madorik at-tanzil va haqiq at-ta'vil" Livan. DKI nashriyoti 2014.